

АРХЕОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МОНЕТ ЭПОХИ ВЕЛИКИХ МОГОЛОВ

Буриева Маржона Саид кизи

Студентка Национального университета Узбекистана

Аннотация. В данной статье освещается археологическое и историческое значение монет эпохи Великих Моголов. Отмечается, что монеты, чеканенные во времена правителей Хумаюна и Акбара, играли важную роль не только в экономическом обороте, но и выражали политическую и религиозную символику. Монеты отражают экономическую стабильность своего времени, значение в международной торговле, а также обладают особой научной ценностью как культурное наследие. Кроме того, их хранение в музеях и частных коллекциях делает их важным нумизматическим источником для современных исследований.

Ключевые слова: Великие Моголы, «Хумаюнома», музей, монета, нумизматика, археология, торговля, культурное наследие.

THE ARCHAEOLOGICAL SIGNIFICANCE OF COINS FROM THE MUGHAL ERA

Bo'riyeva Marjona Said qizi

Student of the National University of Uzbekistan

Annotation. This article highlights the archaeological and historical significance of coins from the Mughal era. It is noted that the coins minted during the reigns of rulers such as Humayun and Akbar played an important role not only in economic circulation but also in expressing political and religious symbolism. These coins possess great scholarly value as indicators of the economic stability of their time, their role in international trade, and their status as cultural heritage.

Moreover, their preservation in museums and private collections serves as an essential numismatic source for modern research.

Keywords: Mughals, Humayunnama, museum, coin, numismatics, archaeology, trade, cultural heritage.

BOBURIYLAR DAVRI TANGALARINING ARXEOLOGIK AHAMIYATI

Bo‘riyeva Marjona Said qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Boburiylar davri tangalarining arxeologik va tarixiy ahamiyati yoritiladi. Humoyun, Akbar kabi hukmdorlar davrida zarb etilgan tangalar nafaqat iqtisodiy muomalada, balki siyosiy va diniy ramziylikni ifodalashda ham muhim o‘rin tutgani qayd etiladi. Tangalar o‘z davrining iqtisodiy barqarorligi, xalqaro savdodagi o‘rni hamda madaniy meros sifatida alohida ilmiy qimmatga ega. Shuningdek, ularning muzey va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanishi bugungi tadqiqotlar uchun muhim numizmatik manba vazifasini bajaradi.

Kalit so‘zlar: Boburiylar, „Humoyunnoma“, muzey, tanga, numizmatika, arxeologiya, savdo, madaniy meros.

Kirish. Boburiylar sulolasi XVI–XVIII asrlarda nafaqat siyosiy va madaniy, balki iqtisodiy hayotda ham yirik iz qoldirgan. Ushbu davrda zarb etilgan tangalar davlatning moliyaviy barqarorligi, savdo aloqalari va diniy-siyosiy qarashlarini aks ettiruvchi muhim tarixiy manba hisoblanadi. Tangalar nafaqat kundalik muomalada, balki marosim va ramziy jarayonlarda ham faol qo‘llangan. Ularning yozuvlari, tasvirlari hamda metallarining sifati orqali o‘sha davr jamiyatining iqtisodiy qudrati, xalqaro savdodagi o‘rni va madaniy qadriyatlari haqida ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. Shu bois, Boburiylar davri tangalari numizmatik va arxeologik nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolani tayyorlashda Boburiylar davri tangalarining arxeologik, numizmatik va madaniy ahamiyatini yorituvchi turli manbalardan foydalanildi. Ular orasida ilmiy qo‘llanmalar, adabiy asarlar, muzey kolleksiyalari va ommabop tarixiy portallar muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola yozishda ikki xildagi tadqiqot usuli qo‘llanildi. Birinchisi, numizmatik tahlil orqali Boburiylar davri tangalarining yozuvlari, tasviri va metall tarkibi o‘rganilib, ularning iqtisodiy va ramziy ahamiyati aniqlangan. Ikkinchisi, tarixiy-qiyosiy usul yordamida ushbu tangalar boshqa sulolalar tangalari bilan solishtirilib, o‘ziga xos xususiyatlari belgilangan.

Muhokama va natija. Andijon tumanining Beshbo‘ynoq mahallasida istiqomat qiluvchi Abdumannob Asronov numizmatika va tarixiy merosga alohida qiziqish bildiradi. U turli davrlarga oid tangalar, osori-atiqalar hamda turmush buyumlarini yig‘ish bilan shug‘ullanib kelmoqda. Uning kolleksiyasidagi eng e‘tiborli namunalardan biri Boburiylar sulolasi vakili Humoyun Mirzo davrida Rajastonda zarb etilgan kumush tangadir. Mazkur tangada bir tomonida hind yozuvi, ikkinchi tomonida esa ot tasviri aks ettirilgani uni numizmatik va madaniy jihatdan alohida qimmatli namuna sifatida ko‘rsatadi[1].

XVI asrda kumush tangalarning qiymati asosan mis tangalar orqali belgilangan. Uzoq vaqt davomida ularning rasmiy kursi 20–21 mis tanga miqdorida qat‘iylashtirilgan bo‘lsa-da, bozordagi iqtisodiy o‘zgarishlar natijasida mazkur nisbat barqaror saqlanmagan. Ayrim davrlarda kumush tangalarning qiymati oshib yoki pasayib turgan, biroq oxir-oqibat yana belgilangan kurs darajasiga qaytgan[2]. Bugungi kunda Asronovning shaxsiy kolleksiyasi boyligi bilan ajralib turadi. Unda turli davrlarda zarb etilgan va 200 dan ortiq davlatga oid ikki mingdan ziyod tangalar jamlangan. Shuningdek, xum, ko‘za, lagan, shamchiroq kabi yuzdan ortiq qadimiy buyumlar ham to‘plamdan o‘rin olgan[1]. Mazkur kolleksiya faqatgina tarixiy va badiiy ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, balki hududda madaniy merosni asrab-avaylash, yosh avlodni tarixga qiziqtirish hamda numizmatika bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda muhim manba vazifasini o‘taydi. Vaqt o‘tishi bilan kumushning xalqaro savdodagi nufuzi ortib borgan va

natijada Shayboniylar davrida zarb etilgan kumush tangalar mamlakat tashqarisiga katta miqdorda olib chiqila boshlagan. Ayniqsa, ushbu tangalar Boburiylar davlatiga keng kirib kelib, muomalada qonuniy ravishda amal qilgan. Ularning ba'zilar Boburiy hukmdori Akbar davrida qayta zarb etilib, ustiga podshohning ismi tushirilganligi kuzatiladi[2].

Manbalarda qayd etilishicha, Zahiriddin Muhammad Bobur diniy va ijtimoiy marosimlarda xalq bilan yaqinlikni ko'rsatish, ularning e'tiborini jalb etish maqsadida tanga sochish an'anasidan foydalangan. Ayniqsa, musalloga – jamoaviy namoz o'qiladigan maskanga qadam qo'yish jarayonida Bobur tomonidan xalq orasiga tangalar tarqatilgani zikr etiladi.

*Bobur elga tanga sochib,
Musalloga qadam qo'ydi*[3].

Bu holat hukmdorning siyosiy va diniy ramziylikni uyg'unlashtirishga intilganini, shuningdek, iqtisodiy barqarorlik ramzi sifatida tanga zarbasi va muomalasiga alohida e'tibor qaratilganini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda "Bobur va jahon madaniyati" muzeyida Boburiy podshohlar tomonidan zarb ettirilgan tangalarning qimmatli namunalarini ko'rish mumkin[4]. Ushbu tangalar nafaqat numizmatik yodgorlik sifatida, balki o'z davrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan dalolat beruvchi tarixiy manba sifatida ham alohida ilmiy qimmat kasb etadi.

Manbalarda qayd etilishicha, Zahiriddin Muhammad Boburning onasi Qutluq Nigorxonim Kobulda vafot etib, o'g'li qo'lida abadiy orom topgan. U donishmand podshoh Ulug'bek Ko'ragon tomonidan barpo etilgan "Bog'i Navro'zi"da dafn qilingan. Gulbadanbegim o'zining "Humoyunnoma" asarida yozishicha, mazkur bog' egalarini rozi qilish maqsadida Bobur ularga ming tanga bergan[5]. Bu ma'lumot Bobur shaxsiy hayotidagi voqealar bilan birga, iqtisodiy munosabatlarda tangalarning amaliy rolini ham yoritib beradi.

Buxoro davlat me'moriy-san'at muzeyi-qo'riqxonasi numizmatika bo'limida turli sulolalar tangalari bilan bir qatorda Boburiylar podshohlighi davrida zarb etilgan tangalarning asl nusxalari ham saqlanmoqda. Ushbu tangalarda

hukmdorlarning nomlari va Qur'on oyatlari bitilgan bo'lib, ular Boburiylar davrining siyosiy va diniy ramzlari, shuningdek, pul muomalasi tizimi haqida muhim tarixiy ma'lumot beradi[6]. Muzey ekspozitsiyasidagi mazkur tangalar Boburiylar davlatining iqtisodiy qudrati va xalqaro savdodagi o'rnini yoritishda numizmatik va arxeologik manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Boburiylar davri tangalari arxeologiya uchun muhim manba bo'lib, ular orqali davrning siyosiy tuzumi, iqtisodiy aloqalari va madaniy qadriyatlari haqida aniq dalillar olish mumkin. Qazilmalar davomida topilgan tangalar joylashuv hududlari va savdo yo'llarini aniqlashda ham yordam beradi. Shuningdek, ularning metall tarkibi va naqshlari orqali hunarmandchilik darajasi va madaniy aloqalarni o'rganish imkoniyati tug'iladi.

Takliflar:

1. Boburiylar davri tangalarining raqamli katalogini yaratib, ularni 3D texnologiyada interaktiv ko'rinishda taqdim etish orqali yoshlar va tadqiqotchilar uchun ochiq manba sifatida taqdim etish.
2. Oliy ta'lim muassasalarida maxsus ko'rgazmalar tashkil etib, Boburiylar davri tangalarining iqtisodiy va madaniy merosdagi o'rnini keng targ'ib qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Turli davrlarda zarb etilgan ikki mingdan ziyod tanga boyliklari. Andijonlik kolleksioner muzeyida saqlanmoqda // UZA. 2023.
Havola: https://uza.uz/oz/posts/turli-davrlarda-zarb-etilgan-ikki-mingdan-ziyod-tanga-boyliklar-andijonlik-kolleksioner-muzeyida-saqlanmoqda_247629.
2. SARIMSOKOV A. O'rta Osiyo numizmatikasi : o'quv qo'llanma. Namangan : Iste'dod Ziyo Press, 2023. — 114 bet.
3. NIZOM T. Kobuldan Hirotgacha / To'lan Nizom // Yoshlik jurnali.
Webb-sahifa: <https://yoshlikjurnali.uz/nazm/shoir-va-shoh-bobur-qalbining-besh-alomati/#>.
4. Andijondagi "Bog'i Bobur" haqida... // Legacy.uz. \
Havola: <https://legacy.uz/uz/andijondagi-bogi-bobur-haqida/>.

- 5. Oqila va mudabbira onalar / Burobiya Rajabova // Ziyouz portal.**

Havola: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/burobiya-rajabova-oqila-va-mudabbira-onalar>.

- 6. Numismatics Collection Highlights // Buxoro davlat me'moriy-san'at muzeyi-qo'riqxonasi.**

Muzey	rasmiy	sayti:
https://www.bukhara-museum.org/collection-highlights/numismatics/ .		